ISSN 2181-7138

# МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ

*Илимий-методикалық журнал*

## *2024*

## 2-сан

***Өзбекстан Республикасы Министрлер Кабинети жанындағы Жоқарғы Аттестация Комиссиясы Президиумының 25.10.2007 жыл (№138) қарары менен дизимге алынды***

***Қарақалпақстан Баспа сөз ҳәм хабар агентлиги тәрепинен 2007-жылы 14-февральдан дизимге алынды. №01-044-санлы гуўалық берилген.***

Нөкис

**2-сан *2024***

*март*

***Шөлкемлестириўшилер:***

***Қарақалпақстан Республикасы Халық билимлендириў Министрлиги, ӨЗПИИИ Қарақалпақстан филиалы***

**Редактор:**
**А. Тилегенов**

**Редколлегия ағзалары:**

Мақсет АЙЫМБЕТОВ
Нағмет АЙЫМБЕТОВ
Айтмурат АЛЬНИЯЗОВ
Сапардурды АБАЕВ
Адхамжон АБДУРАШИТОВ
Хайрулла АЛЯМИНОВ
Байрамбай ОТЕМУРАТОВ
Алишер АЛЛАМУРАТОВ
Дилшодхўжа АЙТБАЕВ
Интизар АБДИРИМОВА
Тўлқин АЛЛАЁРОВ
Марифжон АХМЕДОВ
Умида БАҲАДИРОВА
Фархад БАБАШЕВ
Ботир БОЙМЕТОВ
Гулзода БОЙМУРОДОВА
Шахло БОТИРОВА
Маманазар ДЖУМАЕВ
Асқар ДЖУМАШЕВ
Мухтар ЕРМЕКБАЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Алишер ЖУМАНОВ
Гүлнара ЖУМАШЕВА
Холбой ИБРАГИМОВ
Шохида ИСТАМОВА
Умида ИБРАГИМОВА
Лола ИСРОИЛОВА
Алима КЕНЖЕБАЕВА (Тараз, Қазақстан)
Ярмухаммат МАДАЛИЕВ (Шимкент, Қазақстан)
Меруерт ПАЗЫЛОВА
Асқарбай НИЯЗОВ
Сабит НУРЖАНОВ
Захия НАРИМБЕТОВА
Хушбоқ НОРБЎТАЕВ
Улфат МАҲКАМОВ
Уролбой МИРСАНОВ
Сафо МАТЧОН
Шукурилло МАРДОНОВ
Камаладин МАТЯКУБОВ
Арзы ПАЗЫЛОВ
Барлықбай ПРЕНОВ
Раъно ОРИПОВА
Бахтиёр РАХИМОВ
Фурқат РАЖАБОВ
Светлана СМИРНОВА (Москва, Россия)
Дилшода САПАРБАЕВА
Феруза САПАЕВА
Зайниддин САНАҚУЛОВ
Қаҳҳор ТУРСУНОВ
Амина ТЕМИРБЕКОВА
Нурзода ТОШЕВА
Куанишбек ТУРЕКЕЕВ
Тажибай УТЕБАЕВ
Амангелди УТЕПБЕРГЕНОВ
Мамбеткерим ҚУДАЙБЕРГЕНОВ
Амангелди КАМАЛОВ
Вохид КАРАЕВ
Гулмира ҚАРЛЫБАЕВА
Ризамат ШОДИЕВ
Зафар ЧОРШАНБИЕВ
Рустам ФАЙЗУЛЛАЕВ
Дўстназар ХИММАТАЛИЕВ
Тармиза ХУРВАЛИЕВА
Умид ХОДЖАМҚУЛОВ
Жавлонбек ХУДОЙБЕРГЕНОВ
Гулрухсор ЭРГАШЕВА
Гавхар ЭШЧАНОВА
Қонысбай ЮСУПОВ

# МАЗМУНЫ

## ТИЛ ҲӘМ ӘДЕБИЯТ


**Sobirov B.N.** She’riy asar tarjimasida ruhiy-emotsional holat ifodasi muhim omil sifatida (Ibroyim Yusupov asrlari misolida) ... 7

**Sobirov B.N.** Tarjimada asliyat va uni idrokda qayta tiklash tamoyillari ( Ibroyim Yusupov ijodi misolida) ... 13

**Turdibekova R.Sh.** Interfaol metodlaridan foydalanib o‘zbek tili fanini o‘qitish usullari ... 17

**Muxanova M.G.** Til va tafakkur hamda ularning o’zaro munosabatlari ... 21

**Ruzmetova D.A.** Zamonaviy xoriliy til o’qitish muammolari ... 25

**Muratova N.B.** O‘zbek tilida tilak va tabrik nutqiy aktlarining milliy-madaniy belgisiga asoslangan verbal assotsiatsiyalashuvini o‘rgatishda grafik organayzerlardan foydalanish ... 33

**Muratova N.B.** Leksemalarning gender xususiyatlariga asoslangan assotsiatsiyasini tilak va tabrik nutqiy aktida ifodalanishi ... 41

**Алибекова Р. Х.** Применение интерактивных методов на занятиях по русскому языку ... 45

**Мирзалиева Д.Б.** Использование информационно-коммуникационных технологий при обучении переводу ... 52

**Шабидинова З. И.** Формирование лексической компетенции при обучении иностранному языку ... 55

**Разакова Ш. Д.** Обучение посредством делания ... 59


## ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ


**Мадалиев Я.Х.** Иброй Олтинсариннинг педагогик фаолияти ва ғоялари ... 65

**Мадалиев Я.Х.** Абайнинг педагогик ғояларида ибратли ва ҳикматли сўзлар тавсифи ... 70

**Qaxxarova N. N.** O‘qituvchilarda kompetensiya va kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning pedagogik asoslari ... 74

**Yo‘ldoshev R.E.** Magistrantlarni tayyorlashda ilmiy-pedagogik ta’lim jarayonining dinamik modeli ... 78

**Yaxshiboyeva S.T.** Ta’limda steam ta’limini amalga oshirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari ... 84

**Xo‘jaqulov F.N.** Mantiqiy fikrlashning inson tafakkurini rivojlanishidagi ahamiyati ... 88

**Mirzayev S. A.** Ta’limda ekopedagogikani va bo‘lajak pedagog kadrlarning ekologik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari ... 91

**Haydarov J.G‘.** Zamonaviy ta’limda harbiy-pedagogning o‘rni va unga qo‘yilgan talablar ... 95

**Berdiyeva S.E.** Inklyuziv ta’lim samarodorligini oshirishning ahamiyati ... 99

**Ergashev J.** Tabiiy fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish ... 104

**Карахонова О.Ю.** Саноген фикрлашнинг педагогик таҳлили ва унинг муҳим хусусиятлари ... 108

**Raimberdiyev A.A.** Pedagogik qobiliyatni aniqlash va rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ... 112

**Qosimova G.I.** Таълим жараёнини тадқиқ этишда sinergetika ilmiy tadqiqot yondashuvi sifatida ... 115

**Niyazov J.A.** Birlashtirilgan didaktik interfaol dasturiy tizimdan elektroenergetika fanlarini o‘qitishda foydalanishning nazariy tahlili ... 120

**Muratova Sh.I.** Umumiy pedagogik fanida talabalarni bilim, ko‘nikmalari va o‘quv natijalarini diagnostikasi ... 125

**Baratova N.T.** Ta’lim muassasasi faoliyatini boshqarish imkoniyatlari ... 130

**Yarmanova Yu.B.** Шахс ижтимоий-маданий адаптацияси ва уни шакллантириш омиллари ... 134

**Samadov M.S.** Ahamiyatli usullar yordamida kimyoviy reaksiyalarning tezligi aniqlash ... 138

**Raximov F.R.** Bolalar iqtidorini rivojlantirishni boshqarishning tuzilma-funksional modeli ... 143

**Alimardonova M. X.** Biologiya fanidan kitobxonlik anjumanlarini o‘tkazish ... 149

**Xalilova H.M.** Tarbiya darslarini loyihalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish ijtimoy zaruriyat sifatida ... 155

**Axmedova A.** Talabalar maxsus tayyorgarligini amaliyotda o'quv materiallari orqali tarkiblashtirish metodlari ... 160
**Yoziyeva U.L., Ergasheva N.** Pedagogik jarayonlarda refleksiv yondashuvning ahamiyati ... 164
**Umirov A.A.** Didaktikada elektron ta'lim resurslarini o'quv jarayoniga joriy etish xususiyatlari ... 169
**Ergashev N.G'.** Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar tizimini joriy etish integratsiyasi va asosiy yo'nalishlari ... 174
**Choriyeva M.B.** Pedagogik amaliyotlar orqali talabalarni ijtimoiy adaptiv faoliyatga tayyorlashning afzalliklari ... 179
**Boymatova M.R.** O'qituvchi shaxsida emotsional intellektning o'ziga xosligi ... 183
**Shonazarov J.U.** Ma'naviy boshqaruv tizimida innovatsion texnologiyalar va ularning o'ziga xos xususiyatlari ... 187
**Choriyeva F.A.** O'quvchilar xulqidagi yosh bilan bog'liq o'zgarishlarni korreksiyalashning pedagogik tizimi ... 191
**Xo'jamberdiyeva M.** Shaxs tarbiyasida eydekologiya tamoyillaridan foydalanishning qiyosiy tahlili ... 195
**Temirov M.Sh.** Bo'lajak o'qituvchi shaxsining kasbiy o'zini o'zi rivojlantirishning pedagogik shartlari ... 199
**Очилов А.Э.** Педагогика ва психологияда математик ижодкорлик ... 202
**Buriyeva N.R.** Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalaridan samarali foydalanish ... 206
**Jabborova D.B.** Genetik munosabatlar tushunchasini shakllantirishda maktab kimyoviy eksperimentining ahamiyati va ularda foydalaniladigan tamoyillar tavsifi ... 211
**Choriyeva Z., Usanova M.** Oliy ta'lim muassasasidagi boshlang'ich ta'lim talabalari shaxsining o'qituvchilik kasbiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirish jarayoni ... 216
**Aslonova O.P., Xushvaqtova M. Sh.** Integrativ yondashuv asosida o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashini rivojlantirish imkoniyatlari ... 221
**Zaripova M.Q.** Ta'lim muassasasi faoliyatini boshqarish, davlat-jamoatchilik tamoyiliga ko'ra boshqarishning psixologik-pedagogik asoslari ... 226
**Yuldosheva Yu.J.** Ta'lim tizimini boshqarish organlari faoliyatini tashkil etish ... 229
**Choriyeva Z.T., Boynazarova M.** Pedagoglarning kasbiy sifatlarini shakllantirishda ta'limga integratsion yondashuvning ahamiyati ... 233
**Xalikova Sh.T.** Ta'lim jarayonida ko'rish nuqsoniga ega maxsus maktab tarbiyalanuvchilari tafakkurini rivojlantirishning o'ziga xosligi ... 237
**Urinbayev S.Q.** Ta'lim sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar ... 241
**Ashurov N.R.** Malakaviy pedagogik amaliyot davrida o'quv jarayonini tashkil etish ... 246
**Xolmatov P.Q., O'tayev A.Y., Mirzaxmatov B.B.** Darsdan tashqari mashg'ulotlarda kasb-hunarga yo'llash ishlarini tashkil qilish mazmunini tanlashning tashkiliy-pedagogik mezonlari ... 252
**Sharapova Z.F.** Ta'lim tizimida ta'lim-tarbiyani tashkil etishning zamonaviy metodlarini qo'llash masalalari ... 258
**Abduxamidov S. M., Qadamova B. S., Shivoqova R. O'., Xusniddinova M. S., Ismatullayeva N. R.** Bo'lajak pedagoglarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda kreativ pedagogika ustuvor yo'nalishi sifatida ... 262
**O'tayev A. Y.** O'zbekistonda pedagogika fanining dolzarb masalalari ... 266
**Ачилова Э.С.** Адабий таълимни такомиллаштириш муаммосининг педагогик тадқиқотларда ўрганилиш тадрижи ... 271
**Meylieva M.S.** Individual yondoshuv orqali talabalar kasbiy motivatsiyasini shakllantirishning o'ziga xos jihatlari ... 276
**Musurmonov R.** Modernizatsiyalashgan ta'lim sharoitida o'quvchilarda darsga ijobiy munosabatni barqarorlashtirishda refleksiv ko'nikmalarni shakllantirish ... 283
**Raxmanova M. Q.** Talabalar kasbiy kompetentligini rivojlannirish jarayonida ijtimoiy va pedagogik omillarning o'zaro aloqadorligi ... 288
**Суяров А. М., Ержанова А.А.** Мактаб раҳбарларининг касбий компетентлилигини шаклантириш имкониятлари хусусида ... 295

## МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲӘМ РУЎХЫЙЛЫҚ ТИЙКАРЛАРЫ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

**Azimova Ch. A.** Odob-axloq va nafosat munosabatlarining Islom madaniyatidagi talqini ..... 301
**Казакова М.Қ.** Азизиддин Насафийнинг ҳаёт йўли ва ижодий мероси ..... 306
**Karamova M.F.** Sharq mutafakkirlari ijodida o‘quvchilarning intellektual rivojlantirish tushunchalarining yoritilishi ..... 312
**Ernazarova G.O., Abdullayev X.Sh.** Tarixiy manbalar sharhi – oliy ta’lim muassasalari talabalarida musiqiy madaniyatni shakllantirish omili sifatida ..... 317
**Исроилов Қ. Т.** Замонавий мутахассисда акмеологик фикрлашни шакллантириш ..... 323
**Yuldasheva I.A.** Bo’lajak mutaxassislarni tayyorlashni yangilash ..... 327

## ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

**Isroilov N.S.** Python dasturlash tilini o‘qitish samradorligini oshirishda dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasining imkoniyatlari ..... 331
**Xoliqulov B.J.** Oliy ta’lim muassasalarida python dasturlash tilini o‘qitish hamda talabalarning dasturlashga oid algoritmik fikrlashini rivojlantirish metodikasi ..... 337
**Shaynazarov R.M.** 3D grafik modellashtirish uchun eng yaxshi dasturiy vositalar tahlili va ulardan foydalanish texnologiyalari ..... 343
**Eshmurodov A.G‘.** Web 2.0 texnologiyalari yordamida oshiriladigan aralash ta’lim modeli va uni amalga oshirishning nazariy tahlili ..... 348
**Eshtemirov A.N.** Fizikadan masalalarni yechishni o‘rgatishda modellashtirish ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasining nazariy asoslari ..... 353
**Berdiyev B. R., Yomg‘urova J. B.** Matematika fani o‘qituvchisini metodik tayyorlashda mustaqil ishlarning o‘rni ..... 358
**Sayidova M. X.** Ta’lim sifatini ta’minlashda raqamli texnologiyalar va ularning roli ..... 363
**Qurbonova M. E., Abdulaxatova M. A.** Bo‘lajak kimyo fani mutaxassislarini kasbiy kompetentligini shakllantirish masalalari ..... 370

## БАСЛАЎЫШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

**Қодиров Р.К.** Бошланғич синф ўқувчилари мустақил фикрлашини ривожлантиришнинг дидактик асослари ..... 375
**Muminova N.A.** Boshlang‘ich ta’lim ona tili darslarida didaktik o‘yinlardan foydalanish yo‘llari ..... 378
**Choriyeva Z.T., Berdinazarova B.M.** Ona tilini o‘qitish jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy kompetentliligini takomillashtirish ..... 382
**Raximova R. B.** Maktabgacha va boshlang’ich maktab ta’limining zamonaviy muammolari va ularni hal qilish yo’llari ..... 387
**Irisova S.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini oshirish usullari ..... 393
**Choriyeva M., Yuldashev S.N.** Boshlang’ich sinf o’quvchilarda ona tili faniga oid kompitensiyalarni shakllantirish metodikasi ..... 398
**Berdiyeva L.N.** Boshlang‘ich sinf o`quvchilarining tafakkur tezligini oshirish imkonyatlari ..... 403
**Oripova N.X., Umurqulova M.P.** Bolalar mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda AKTdan foydalanish pedagogik muammo sifatida ..... 408
**Choriyeva F., Xusanova D.** Maktabgacha yoshdagi bolalar xulqidagi salbiy o‘zgarishlarning kelib chiqish sabablari va omillari ..... 413
**Usarova M.N.** Boshlang‘ich sinf o’quvchilari faolligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ..... 417
**Hamroyev Sh.E.** Boshlang`ich sinflarda axloqiy mavzudagi suhbatlarni o`tkazish: mummolar, izlanishlar va yechimlar ..... 421
**Quvanov Z.** Boshlang‘ich ta’limda mantiqiy fikrlashni rivojlanatirish metodikasi ..... 427
**Alimardonova M.B.** Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining bilish ko’nikmalarini rivojlanishida o‘yin muhim vosita sifatida ..... 432

**Ibragimova G. R.** Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlari ..... 437
**Botirova L.L.** Maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi ..... 441
**Xamidjonova M.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda innovatsion fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning ahamiyati ..... 446
**Jumayev F.A., Raximova L.B.** Boshlang‘ich sinflarda bolalar adabiyotini o‘qitilishining didaktik ahamiyati ..... 450
**Тиркашова Г.Б.** Умумтаълим мактабларида инновацион бошқарув фаолиятинининг зарурати ва имкониятлари хусусида ..... 453
**Nortojiyeva M. Z.** O‘quvchilarni arifmetik amallar yordamida og‘zaki hisoblash usullariga o‘rgatish ..... 459
**Normatova N.K.** Adaptivlik tushunchasining mazmuni va mohiyati ..... 465
**Xo‘jaqulov A.E.** Possibilities of game activities in the formation of a valuable attitude towards the family in children of the preschool educational organization ..... 469

## ТАСВИРИЙ САЪНАТ

**Gulmurodova D.M.** Ta’lim tizimida o‘quvchilarga rangshunoslik tarixini o’rgatish ..... 474
**Baymetov B. B.** Oliy pedagogik ta’limda bo’lajak tasviriy san’at o’qituvchisini badiiy-ijodiy rivojlantirish va kasbiy faoliyatga tayyorlash shartlari ..... 479

## ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲӘМ СПОРТ

**Abdullaev I.** Jas futbolshílardíń texnik-taktik tayarliǵin jetilistiriwdiń zamanagóy usillarí ..... 484
**Bobomuradov S .E.** Yosh futbolchilarda jismoniy sifatlarni rivojlantirishning vosita va usullari ..... 488
**Suvonov Q.Yo.** Kurash turlari nazariyasi va metodlari tasnifi ..... 493
**Yoziyeva U.L., Ergasheva N.** Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishning pedagogik asoslari ..... 498
**Yusupov E. T.** Kurash sport turning qoidalari texnika va taktikasi ..... 502
**Boltabayev Sh. O.** Turli toifadagi gandbolchilarning tayangan holda darvozaga to‘p otish hujum texnikasi kinematikasini aniqlash va solishtirish ..... 507
**Xabibullayev S.X.** “Yosh futbolchilarning musobaqa va mashg’ulotlardagi individual texnik-taktik harakatlarining samaradorligini o’rganish” ..... 519
**Shukurllayev J. M., Murodova R. M.** Kichik voleybol sport turiga tayyorlash akmeologiyasini voleybolga integratsiyalash ..... 524
**Nurmatov F.A.** Pedagogik kategoriya sifatida kompetentlilikning mohiyati va uning bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilari faoliyatidagi o’rni ..... 528
**Арзыбеков Т.** Проблемы спортивного отбора ..... 534
**Арзыбеков Т.** Проблема допинга в спорте ..... 540
**Baylepesov K., Seydaliev S.** The bases of command formation in rowing ..... 547

# PEDAGOGIK KATEGORIYA SIFATIDA KOMPETENTLILIKNING MOHIYATI VA UNING BO'LAJAK JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDAGI O'RNI

***Nurmatov F.A.***
*ChDPU Jismoniy madaniyat nazaryasi kafedrasi mudiri dotsent*

**Tayanch so'zlar:** kompetentlik, kompetensiya, kasbiy faoliyat, samaradorlik, yondashuv, muloqot, mahorat, sifat, istedod, iqtidor.

**Ключевые слова:** компетентность, компетентность, профессиональная деятельность, эффективность, подход, общение, мастерство, качество, талант, талант.

**Key words:** competence, competency, professional activity, efficiency, approach, communication, skill, quality, talent, talent.

Ma'lumki, bo'lajak pedagoglarning kasbiy faoliyatda erkin va mustaqil amaliy faoliyat ko'rsatishini ta'minlovchi zaruriy omillardan biri bu ulardagi kasbiy-pedagogik kompetentlikning shakllanganligi bilan asoslanadi. Bunda pedagogik kompetentlikning o'ziga xos tuzilmasi, shakllanish bosqichlari va bu jarayonda o'qitishning zamonaviy shakl va metodlardan foydalanishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy dunyoda inson va jamiyatni takomillashtirish omili sifatida jismoniy madaniyatning roli sezilarli darajada oshib bormoqda¬. Shunga ko'ra, jamiyat va uning a'zolari tomonidan jismoniy tarbiya sohasida xizmat ko'rsatuvchi mutaxassislarni tayyorlash sifati va samarasiga yetarli darajada e'tibor qaratilib kundan kunga kasb malakalari darajasiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limga murojaat qilish pedagogik ta'limning, shu jumladan jismoniy tarbiyaning yangi maqsadlarning paydo bo'lishiga olib keladi.

Yo'qoridagilardan kelib chiqqan holda, universitetning ta'lim maydoniga yangicha yondashuvlar va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish asosida pedagog kadrlar tayyorlash tizimini modernizatsiya qilish zarur.

Ta'lim amaliyotida kompetentli yondashuvni amalga oshirish ushbu jarayonning barcha jihatlarini chuqur va har tomonlama ilmiy o'rganishni talab etadi. Shu bilan

birga, ta'kidlash kerakki, kompetentlikni pedagogik fenomen sifatida talqin qilish qiyin, chunki kompetentlik kategoriyasi pedagogikaga boshqa fanlardan kiritilgan bo'lib, u fanlarda etarli darajada talqin etilgan, o'rganilgan va o'zining mustahkam o'rniga ega. U ijtimoiyiqtisodiy jarayonlarning natijasi sifatida pedagogika fanining tushunchalari tarkibiga nisbatan yaqinda kirib kelgan va hozircha pedagogik, xususan didaktik tushunchalar tizimiga to'laqonli singdirilmagan.

Shu bilan birga, ta'limda kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuvlarning dolzarbligi tufayli "kompetentlik", "kompetensiya", "tayanch kompetensiyalar" atamalari ta'limning yangi sifatlariga doir masalalarni muhokama etishda tobora ko'proq ishlatilmoqda hamda keng tarqalib bormoqda. Pedagogik hamjamiyatda kompetentlik va kompetensiyalar, ulardan qaysi birlari tayanch (universal) hisoblanishi, ularni shakllantirish va baholash usullarining qanaqaligini tushunib etish jarayoni jadallashib bormoqda, ushbu tushunchalarni aniqlashtirish bo'yicha qizg'in munozaralar davom etmoqda. Shu sababli bugungi kunda ushbu tushunchalarning juda ko'plab ta'riflari va talqinlari mavjud.

Kompetentlik – bu faqatgina o'zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va salmoqli hajmi bo'libgina qolmay, balki ulardan kerak vaqtda va o'zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida foydalana olish demakdir.

Bu ma'noda kompetentlik kasb egasining tavsifi hisoblanadi, shu bilan birga mutaxassisning samarali kasbiy faoliyatga qodirligining tavsifi sifatidagi kompetentlik ta'limga kompetentli yondashuvning asosi bo'lib qoldi. Bunday kompetentlikning murakkab, integral xarakterini ta'kidlab o'tgan holda, xorijdagi boshqaruv modellarida uning uch darajasi yoki turi ajratib ko'rsatiladi:

-integrativ kompetentlik – bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga va tashqi muhitning tez o'zgarib turadigan sharoitlarida ulardan foydalana olishga qodirlik;

-ijtimoiypsixologik kompetentlik – zehnidrok, odamlarning xulqatvorini tushunish bo'yicha bilimlar va ko'nikmalar, ularning faoliyati motivatsiyasi, kirishuvchanlik va muloqot madaniyatining yuqori darajadaligi.

-boshqaruv faoliyatining muayyan sohalari bo'yicha kompetentlik – qarorlar qabul qilish, axborot yig'ish, odamlar bilan ishlash metodlari va hokazolar.

Yangi ijtimoiyta'limiy g'oyalar nuqtai nazaridan kompetentlik tushunchasi yanada rivojlanib bormoqda. Kompetentlikni rivojlantirish bosqichlaridan birinchisi – uning tarkibiy qismlari doirasini sub'ekt kasbiy faoliyati uchun muhim bo'lgan kompetensiyalarning qo'shimcha sohalarini kiritish hisobiga kengaytirish bilan bog'liq. Kompetentli yondashuvining asoschilaridan biri bo'lgan J.Raven buning muhimligini shunday tushuntiradi: "biz ko'proq va kamroq kompetentli fermerlar, o'qituvchilar, haydovchilar, temirchilar, menejerlar va harbiy ofitserlarni solishtirganimizda, har bir holatda o'z ishining ustalari namoyish qilgan siyosiy xulqatvor aynan eng muhim bo'lib chiqdi .

Psixologik jihatdan kompetentlik – atrofdagi olamni tushunish mezoni va u bilan o‘zaro ta’sirining mutanosibligi sifatida belgilanadi yoki yanada batafsilroq ta’riflansa, faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish imkonini beradigan bilim, ko‘nikma va malakalar yig‘indisidir yoki insonning atrofmuhitga va o‘zo‘ziga ta’sir etish metodlarini egallaganligidir.

V.Yu. Krichevskiy kasbiy ahamiyatga ega shaxsiy sifatlarni ko‘rib chiqar ekanlar, kompetentlikni xushaxloqlik, pedagogiktashkilotchilik, boshqaruvchilik, kommunikativlik va boshqa sifatlar bilan bir qatorga qo‘yadilar . Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga qodirlik, ijtimoiy va psixologikpedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga qodirlik bilan belgilanadi.

Pedagogolimlarning ishlarida kompetentlikning pedagogik nuqtai nazardan yanada kengroq va sinchiklab o‘rganish imkonini beradigan turli jihatlari va tarkibiy qismlari ajratib olingan va o‘rganib chiqilgan.

L.M. Dolgovaning fikricha, kompetentlik − egallagan bilimlar asosida faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishdir. Kompetentlik universal bilimlarga asoslangan holda mustaqil faoliyat tajribasini nazarda tutadi. Kompetentlik – ijtimoiy-amaliy ko‘rinishidagi bilim va ko‘nikmalardan iborat mavjudligi bo‘lib, ta’lim jarayoni natijalariga jamiyat tomonidan ijtimoiymadaniy talablar talablar qo‘yiladigan hollarda namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, kompetentlikni layoqatlilik, tayyorlik, imkoniyatga egalik va shu bilan birga, ma’lum bir harakatlar natijasi sifatida talqin etish mumkin. Boshqacha aytganda, kompetentlik – faoliyatga doir kategoriya bo‘lib, sub’ektning qo‘yilgan vazifalarni bajarishga qaratilgan kasbiy, ijtimoiy va boshqa faoliyati jarayonida namoyon bo‘ladi. Umumiy holda ta’riflaydigan bo‘lsak, kompetentlik – individning jamiyatda, xususan kasbiy faoliyat sohasida muvaffaqiyatli faoliyat olib borishi, atrofidagi ob’ektlar va sub’ektlar bilan o‘zaro hamkorlik bo‘yicha muayyan malakalar va kasbiy tajribalar shakllanganligining muayyan darajasini demakdir.

Bo‘lajak o‘qituvchi kasbiy-pedagogik ijodkorligining shakllanishi uning jamiyatdagi o‘rni, pedagogika oliy ta’lim muassasasidagi majburiyati va vazifalariga hamda individual qobiliyatlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘qituvchining ijodiy individualligi uning individual xususiyatlari, ya’ni fikrlashning ilmiy tarkib topganligi, ishga ijodiy yondashishi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishga intilishi va boshqalarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi. Bo‘lajak

o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish va takomillashtirishning psixologik-pedagogik shart-sharoitlari qarama-qarshiligini his qilish, ularning echimini topish uchun esa o‘ziga xoslik va maqsadga muvofiqlik kabi kasbiy xislatlar tarkib topadi.

Kompetentlikning shakllanganligi to‘g‘risida inson mehnatining natijasiga qarab baho beriladi. Har bir xizmatchining kompetentliligi darajasi uning bajargan ishi shu kasbiy faoliyatning yakuniy natijasiga qo‘yiladigan talablarga qay darajada javob berishiga qarab belgilanadi.

Kompetentlik to‘g‘risida insonning mehnat faoliyati davomida qilgan harakatlarining miqdoriga qarab emas, balki faoliyatning natijasiga qarab baho berish to‘g‘ri bo‘ladi. Xuddi shuningdek, savodxonlik darajasiga qarab ham kompetentlikni belgilab bo‘lmaydi.

M.P.Choshanov fikricha, kompetentlik kasbiy tayyorgarlikning umuman yangi sifati bo‘lib, uning o‘ziga xos tomonlari quyidagilardan iborat:

kompetentli mutaxassisning bilimlarni egalashda xarakatlari amaliy tezkor va harakatchan, ular doimo yangilanib turadi;

kompetentlik mazmuniy (bilimlar) va protsessual (ko‘nikmalar) komponentlarga ega. Muammo mazmunini tushunishning o‘zigina etarli emas, uni amaliy jihatdan maqbul usullar bilan hal eta bilish kerak, ya’ni metodlarning moslashuvchanligi kompetentlikning zaruriy tasnifi hisoblanadi;

kompetentlik darajalarini rivojlantirishning maqbul echimlarni tanlay bilish, qarorni asoslab bera olish, noto‘g‘ri qaror qabul qilish yo‘llaridan voz kechish, ya’ni tanqidiy fikrlay olishni taqozo etadi.

A.K. Markova kasbiy kompetentlikni quyidagi turlarga ajratadi:

- maxsus kompetentlik – kasbiy faoliyatni yuqori darajada egallaganlik, o‘zining kasbiy jihatdan bosqichma-bosqich o‘sib borishini loyihalashtira olish;
- ijtimoiy kompetentlik – birgalikdagi (guruhli, kooperativ) kasbiy faoliyat, hamkorlik, shuningdek, mazkur kasbga tegishli kasbiy muloqot yo‘llarini puxta egallaganlik, o‘zining kasbiy faoliyati natijalariga ijtimoiy jihatdan javobgarlik;
- shaxsiy kompetentlik – shaxsiy dunyoqarashlari va o‘zo‘zini rivojlantirish yo‘llarini egallaganlik, shaxsning kasbiy jihatdan faoliyatining izdan chiqib ketishiga qarshilik ko‘rsata olishga qodirligi;
- individual kompetentlik – kasbiy faoliyati doirasida o‘z-o‘zini namoyon qila olish va individualligini rivojlantirish, kasbiy rivojlanishga tayyorlik, o‘zining individualligini saqlay bilish, o‘z mehnatini oqilona tashkil eta bilish, mehnat faoliyatini zo‘riqishlarsiz amalga oshirishga qodirlik.

Yuqorida sanab o‘tilgan kompetensiyalarning barchasi bir insonda mujassam bo‘lmasligi mumkin. Inson o‘z kasbiy yo‘nalishi bo‘yicha yaxshi mutaxassis bo‘lishi mumkin, lekin muloqotga kirisha olmasligi, o‘zo‘zini takomillashtirish

bo‘yicha vazifalarni amalga oshira olmasligi mumkin. Shunga ko‘ra, uning maxsus kompetentligini yuqori darajada, ijtimoiy va shaxsiy kompetentligini pastroq darajada deb e’tirof etish mumkin.

Shunday kasbiy kompetensiyalar borki, ular ko‘plab kasblar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va ishlab chiqarishda ham, ijtimoiy amaliyotda ham qo‘llanilganda o‘z ahamiyatini yo‘qotmaydi. Yuqorida sanab o‘tilgan kasbiy kompetentliklarning har bir turi shunday kasblararo umumiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi. Masalan, maxsus kompetentlik ishlab chiqarish jarayonlarini rejalashtirish, texnika bilan ishlash ko‘nikmalari, texnik hujjatlarni o‘qiy olish, qo‘l ishlarini bajarish malakalariga; shaxsiy kompetentlik – o‘z faoliyatini rejalashtirish, nazorat qilish va boshqarish, mustaqil ravishda qarorlar qabul qilish, nostandart echimlarni topa olish (kreativlik), muammoni ko‘ra bilish, yangi bilim va ko‘nikmalarni mustaqil ravishda egallay olish layoqatiga; individual kompetentlik – motivatsiyaga ega bo‘lish, bajaradigan ishining sifatini oshirishga intilish, o‘zo‘zini safarbar qila olish, o‘ziga ishonch va optimizmga ega bo‘lishni taqozo etadi. Yuqorida ko‘rib chiqilgan fikrlarga asoslanib shuni aytish joizki, mutaxassisning kasbiy kompetentligi mohiyatini va tuzilishini aniqlash jarayonida, bo‘lajak kasb ta’limi mutaxassisning kasbiy kompetentligini o‘rganishning asoslariga ega bo‘lamiz.

Shaxsning o‘z kasbiy vazifasini bajarishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish, o‘z kasbiy mahoratini tinmay oshirib borish, pedagogik jarayonlarni emotsional-qat’iylik bilan boshqara bilish, kompetensiya yuzaga chiqishi va h. Shunday qilib, mutaxassis kasbiy kompetensiyasining mohiyati, mazmuni va tuzilishini aniqlar ekanmiz, kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini o‘rganishning asoslariga ega bo‘lamiz. Lekin mutaxassisning kasbiy kompetentligi shakllanishida psixologik-pedagogik shart-sharoitlar ham muhim ahamiyatga egadir.

Kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’lim insonning o‘z shaxsiy manfaatlari uchun ham, jamiyat, davlat manfaatlari uchun ham olib boradigan faoliyatining asosiy sohalaridagi muvaffaqiyatini ta’minlovchi bilimlar va amaliy faoliyat usullarini kompleks ravishda o‘zlashtirishiga qaratilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, ta’lim jarayonining ham mazmunini, ham shakllarini zamonaviy ta’lim tamoyillariga asosan birdek o‘zgartirish zarur. Bunda o‘zgartirilgan shakllar ta’lim oluvchilarga muayyan kompetensiyalar bo‘yicha bilim bermasdan, balki butun ta’lim jarayoni davomida ular asosida faoliyat olib borishlarini ta’minlashi kerak. Ya’ni, ta’lim oluvchi navbatdagi ko‘nikmalar to‘plamini shakllantirish yo‘li bilan kelgusi kasbiy faoliyatiga tayyorlanishi emas, balki, kompetensiyalarni bir vaqtning o‘zida singdirib borishi kerak. Shuning uchun kompetentli yondashuv natijasida quyidagilar ta’minlanishi lozim:

– o‘zo‘zini rivojlantirish manbai sifatida ta’lim olishga ichki motivatsiyaning mavjud bo‘lishi;

– yaxlit faoliyatni egallash sharti sifatida o‘quv faoliyati jarayonida o‘z-o‘zini safarbar eish qobiliyati;

– har bir odamga o‘zining u yoki bu o‘quv materialini o‘zlashtira olish darajasini aniqlash imkonini beruvchi o‘zo‘zini differensiatsiyalash (o‘z darajasini aniqlay bilish) qobiliyati;

– ta’lim oluvchi tomonidan shaxsiy ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarga erishish;

– ta’lim jarayonini sub’ektlari faoliyati o‘zaro bog‘liqligi.

Xulosa qilsak, kompetentlikka yo‘naltirilgan ta’limning metod va texnologiyalari ma’lum bir sharoitlarda shakllantirilgan qobiliyatlarning boshqa bir sharoitlarga oson ko‘chishi va moslashuvchanligini ta’minlashi kerak, ya’ni “noadaptiv faollik” xususiyatini hosil qilishi lozim.

**Adabiyotlar:**


1. Krichevskiy V.Yu. Finansovaya samostoyatelnost v sfere obrazovaniya: Pervыe shagi: posobie dlya rukovoditeley obrazovatelnых uchrejdeniy - M.: Prosveщenie, 2007.- 176 s.
2. Dolgova L.M. Probnыe deystviya uchaщixsya v prostranstve innovatsionnoy shkolы. 2007. S.191-193.
3. Markova A.K. Psixologiya professionalizma. – M.: Znanie, 1996.–308 s.
4. Salomov R.S. Sport mashg‘ulotning nazariy asoslari – Toshkent., o‘quv qo‘llanma O‘zDJTI, 2005 yil - 238 b.
5. Shomirzayev M.X. Practical lessons in technology: Characteristics of organization and conduct // Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 991-1001.
6. Eshqobilov E.M . (2023). Development of professional pedagogical creativity of future physical education teachers on the basis of a competent approach. International bulletin of engineering and technology, 3(3), 201–204.



**РЕЗЮМЕ**

Ushbu maqolada muallif tomonidan bo’lajak jismoniy tarbiya o’qituvchilarining kasbiy ijodkorligini rivojlantirishda kamptentli yondashuvni o’rni, uni o’zlashtirish, va faoliyatda o’zlashtirilgan harakat amallarini qo’llay olish shuningdek kasbiy kompetentlikni shakllantirishning maqsadi kasbiy va shaxsiy rivojlanish jarayonida ta’lim oluvchining o‘z-o‘zini anglashi haqida faktlar keltirilgan.

**РЕЗЮМЕ**

В данной статье раскрывается роль компетентностного подхода в развитии профессионального творчества будущих учителей физической культуры, его овладения и умения использовать усвоенные в деятельности действия, а также цель формирования профессиональной компетентности в автором обсуждаются процессы профессионального и личностного развития, приводятся факты о Я-концепции реципиента.

**SUMMARY**

In this article, the role of the competent approach in the development of the professional creativity of future physical education teachers, its mastery, and the ability to use the actions learned in the activity, as well as the purpose of the formation of professional competence in the process of professional and personal development, are discussed by the author. facts about the recipient’s self-concept are presented.

ISSN 2181-7138

Т. Н. Қары Ниязий атындағы Өзбекстан педагогикалық
илим-изертлеў институтының Ж. Орынбаев атындағы Қарақалпақстан филиалы

# «МУҒАЛЛИМ ҲӘМ ҮЗЛИКСИЗ БИЛИМЛЕНДИРИЎ»

**№ 2**

Нөкис — 2024

Басып шығыўға жуўапкер:
*А. Тилегенов, С. Нуржанов*

Баспаға таярлаған:
*А. Тилегенов*

Компьютерде таярлаған:
*П. Реймбаев, З. Ниязымбетова*

***Мәнзил: Нөкис қаласы, Ерназар Алакөз көшеси №54***
***Тел.: +998 61 224-23-00, +998 61 224-01-34***
***e-mail: uzniipnkkf@umail.uz,***
***mugallim-pednauk@umail.uz***
***www.mugallim-uzliksiz-bilim.uz***
***www.KRTEACH.UZ***

***Журналға келген мақалаларға жуўап қайтарылмайды, журналда жәрияланған мақалалардан алынған үзиндилер «Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў» журналынан алынды, деп көрсетилиўи шәрт. Журналға 5-6 бет көлеминдеги материаллар еки интервалда TIMES NEW ROMAN шрифтинде электрон версиясы менен бирге қабыл етиледи. Мақалада келтирилген мағлыўматларға автор жуўапкер.***

Оригинал-макеттен басыўға рухсат етилди 11.03.2024. Форматы $70x100^1/_8$
«Таймс» гарнитурасында офсет усылында басылды.
Шәртли б.т. 31. Нашр. т. Нусқасы _____ Буйыртпа №